



KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA ONA TILINI O'RGATISH IJTIMOIIY- PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sodiqov M.A.

Andijon davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinflar o'quvchilari, ijtimoiy-pedagogik muammo, yosh avlod orasida kar va zaif eshituvchi bolalar, pedagogik-psixologik, ijtimoiy-siyosiy tavsif, eshitish qobiliyatining turli darajadagi pasayishi.

Ключевые слова: глухие и слабослышащие учащиеся начальных классов, социально-педагогическая проблема, глухие и слабослышащие дети подрастающего поколения, педагогико-психологическая, социально-политическая характеристика, тугоухость разного уровня.

Key words: deaf and hard of hearing primary school students, socio-pedagogical problem, deaf and hard of hearing children of the younger generation, pedagogical-psychological, socio-political characteristics, hearing loss of different levels.

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama zamon talablari doirasida tarbiyalash va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish dolzarb masalalar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yosh avlod orasida kar va zaif eshituvchi bolalar ham mavjud bo'lib, ularga ta'lim berish va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish kompleks yondashuvlarni taqozo etadi. Mazkur toifa bolalar ta'limining asosini til egallash jarayoni tashkil etadi. Chunki ularda nutq mavjud bo'lmaganligi sababli, ona tilini kattalarga taqlid asosida yoki evolyutsion jarayonda mustaqil ravishda egallash imkoniyati yetarli bo'lmaydi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning ona tili asosida nutqini rivojlantirish masalasi pedagogik-psixologik, ijtimoiy-siyosiy tavsifga egadir. Buning asosiy sababi shuki, mazkur toifa bolalarni kelajakda boqimanda bo'lmasdan, mustaqil ravishda muayyan kasb bilan shug'ullanishiga erishishda ona tilini egallash muhim omildir. Til orqali ular turli ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa munosabatlarga kirishadilar. Kasb egallashlari uchun ham ona tilida og'zaki va yozma bayon ko'nikmalari taqozo etiladi. Sog'lom bolalar eshitgani uchun tilni egallashda kattalarga taqlid qiladi, mustaqil ravishda muloqotning ilk



ko'nikmalarini egallay oladi. Eshitish qobiliyatining turli darajadagi pasayishi yoki buzilishi esa, og'zaki nutqni qabul qilish hamda o'z fikrini og'zaki bayon qilish, o'zgalarga yetkazishda qiyinchilik tug'diradi. Chunki inson tug'ilgan kundan to maktab yoshigacha bo'lgan davrigacha intensiv ravishda ona tilini egallaydi, maktab ta'limi va keyingi ta'lim bosqichlarida nutqiy amaliyotning turli jihatlarini farqlaydi va egallaydi. Bunday imkoniyati bo'lmagan eshitishida muammosi bo'lgan bolalar va o'smirlar o'zgalar nutqini qabul qilish, tushunish va javob qaytarishga o'rganishlari uchun maxsus ta'limiy sharoitlar, korreksion yo'naltirilgan uslublardan foydalanish talab etiladi. Bu vazifalar esa, mutaxassis defektolog-surdopedagoglar tomonidan amalga oshiriladi.

Sog'lom bolalarga ona tilini o'rgatish va ona tili orqali yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash milliy amaliyoti uzoq va boy tarixga egadir. Bola tomonidan ona tilini egallanishida muhim bosqich bu maktab ta'limi davridir. Maktab sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarni hayotga tayyorlaydi, ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Buyuk ma'rifatparvar olim Maxmudxo'ja Behbudiy: «Maktab dunyo imoratining eng muqaddas va eng qadrlisidir», - degan edi. O'zbek xalqi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan ma'naviy merosini yaratib, takomillashtirgan xolda yuzlab avlodlarini, insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, mardlik, odoblilik kabi umuminsoniy qadriyatlar va yaxshi fazilatlar ruhida tarbiyalab kelmoqda. Har qanday tarbiyaning asosini ma'naviy ta'sir tashkil etadi. Ma'naviy ta'sir esa, til orqali amalga oshiriladi. Ona tilini yetarli darajada egallagan o'quvchi xalqning boy ma'naviy merosini o'qib tushunadi, ularda ilgari surilgan g'oya va qoidalarga hayoti davomida rioya qiladi. Buyuk allomalarimizdan Abu Rayhon Beruniy, Imom Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yugnakiy, Amir Temur, Yusuf xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ulug'bek, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Forobiy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniylar kabi o'nlab buyuk shoir va mutafakkirlar qoldirgan nodir va durdona asarlarning mazmun mohiyatini yoshlarga yetkazishda ona tilining beqiyos o'rni bordir. Bundan tashqari xuquqiy, iqtisodiy, psixologik va boshqa soha mazmuniga daxldor ma'lumotlar inson hayotida muhim o'rin tutadi. Ularni o'qib tushunish va shaxsiy hayotida foydalanish uchun ham ona tilini egallash taqozo etiladi. Bundan tashqari kar va zaif eshituvchi bolalar ham jamoada ijtimoiylashadi. Ular yakka holda o'z olamida qolib ketmasligi kerak. Bu xususda buyuk tib ilmining sulтони Abu Ali Ibn Sino o'zining pedagogik qarashlarida «...jamoadan, jamiyatdan ajralib tarbiya topgan bola baxtsiz bo'lib, inson oilada dunyoga kelgani bilan jamiyatga aloqadordir» - deya ta'kidlaydi.

Inson nutq orqali atrofdegilar bilan munosabatda bo'lib, u nutq tovushlarini eshitar ekan, bunda tovushlar o'rtasidagi aloqalarning yuzaga kelishi orqali butun



bir soʻz, soʻzlar oʻrtasida aloqalarning yuzaga kelishi esa, gap hosil qiladi. Soʻzlar va ular orqali ifodalanayotgan narsa va hodisalar oʻrtasida assotsiatsiya yuzaga keladi. Demak nutqni egallayotgan kar va zaif eshituvchi bola faqat uning shakl tomoninigina emas, balki uning maʼno tomonini ham egallaydi. Bu esa, kar va zaif eshituvchi bola uchun juda qiyin va uzoq davom etadigan jarayondir. Chunki bola nutqni egallagan holda tugʻilmaydi. Sogʻlom bola nutqining taraqqiyoti katta odamlar tilining taʼsiri ostida kechadi. Shuning uchun bolaning atrofidagi-oilasidagi insonlar qaysi tilda gaplashsalar, u ham shu tilni oʻrganadi. Sogʻlom bola nutqni egallashdek juda ham qiyin jarayonni qisqa vaqt davomida uddasidan chiqa oladi. Demak, maktabgacha yoshdagi bola nutqi kattalarning ona tilidagi muloqotiga bogʻliq holda rivojlanadi. Bolalarning nutqi kattalar nutqiga taqlid qilishlari orqali shakllana boshlaydi. Kar va zaif eshituvchi bolalarga ham ona tilida soʻzlashish qanchalik erta oʻrgatilsa, ularning shaxs sifatida shakllanishi shunchalik samarali kechadi. Yaʼni ularga ona tili yetrali darajada oʻrgatilsa, ular ham jamiyatning faol fuqarosiga aylanadi. Oʻzining moddiy va maʼnaviy ehtiyojini qondirish boʻyicha zarur harakatlarni amalga oshiradi. Natijada axloqiy va aqliy kamolotga erishadi. Bu haqida esa, Al-Forobiy shunday deydi: «Inson va jamiyatning gʻalabaga erishuvi, yaxshilikni qoʻlga kiritishi, axloqiy va aqliy yoʻnalishga erishuvi, inson va jamoaning oʻz qoʻlidadir». Biroq inson farovon hayot kechirishida soʻzlashish va kasb-hunarga muhtojligi ham qator olim va mutafakkirlar qarashlarida taʼkidlab oʻtilgan. Shaxs shakllanishining turli bosqichlarida sogʻlom insonlar kabi kar va zaif eshituvchilar uchun ham mustaqil mutolaaga ham ehtiyoj tugʻiladi. Chunki ularning yonlarida doim ham ular egallagan muloqot vositalari (imo-ishorali nutq, daktil nutq)dan foydalanishni biluvchi pedagoglar boʻlmaydi. Oʻz-oʻzidan kerakli tavsiyalarni manbalardan oʻqish va ulardan foydalanishga oʻrganishda mustaqil oʻqishga moslashish talab etiladi. Mustaqil bilim olishning inson hayotidagi roli haqida Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» va Ahmad Yugnakiyning «Hibat–ul haqoyiq» kabi pedagogik yodgorliklarida mustaqil ravishda olingan bilimlarning, mustahkam boʻlishi haqida fikr yuritiladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini oʻrgatishning mazmuni va oʻziga xosligini tushunishda surdopedagogika fani rivojlanishini tahlil qilish zarurati tugʻildi. Surdopedagogik qarashlar va gʻoyalarning paydo boʻlishi va umumiy pedagogikada oʻrin topishi chuqur tarixga borib taqaladi. Fanning rivojlanish bosqichlarida faoliyat olib borgan olimlar va amaliyotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy-amaliy qarashlarida eshitishida muammolari boʻlgan insonlarga ona tilini oʻrgatish falsafa, tibbiyot, tabiiy fanlar, psixologiya, fiziologiya, tilshunoslik va boshqa fanlar bilan uygʻunlashishi taʼkidlangan.



XVIII asrgacha karlarga befarq yoki yovuz munosabatlarda bo‘lishgan. Ko‘pincha tug‘ma karlarni inkvizitsiya gulxanlarida yoqishgan. Bu davrda inson haqida ta‘limotning yuzaga kelishi karlarning yashash va faoliyat ko‘rsatish ahvolini og‘irlashtirdi. Chunki ular eshitish va nutqidagi nuqsonlari sababli “Inson” maqomi darajasiga erisha olmaganlar. Bularning bosh sababi eshitmaydiganlarning aqliy imkoniyatlariga ishonmaslik edi.

XIX asrga kelib, surdopedagogika sohasining takomillashuvida pedagogika, tilshunoslik, psixofiziologiya fanidagi ijobiy yutuqlar katta ahamiyat kasb etgan. Xususan, Rossiyada I.G.Chyerneshevskiy, N.A Dobrolyubov, N.I.Pirogov, K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenovlarning insonparvarlik g‘oyalari ta‘sirida karlarni tarbiyalash va ularga ona tilini o‘rgatish usullarini ishlab chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Bunda sog‘lom bolada nutqning shakllanish davrlariga oid tadqiqotlarga asoslanilgan. Biroq olimlar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha talqin qiladilar, har xil nomlaydilar, hatto har birining yosh chegaralarini turlicha belgilaydilar. Masalan, G.L.Rozengard Pupko bola nutqining rivojlanishini 2 davrga ajratadi[, -27]:

- tayyorlov davri (2 yoshgacha);
- nutqning mustaqil davri.

Surdopedagogika va uni tashkil etuvchi ona tilini maxsus o‘rgatish uslubiyatining rivojlanishini umuminsoniy qadriyatlarni tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali to‘g‘ri tushunish va anglash mumkin. Ayniqsa, kar va zaif eshituvchilarga ona tilini maxsus o‘qitish tizimlarini o‘rganish, ularning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishda turli davrlarda yetakchilik qilgan yondashuvlarni qiyosiy o‘rganishni taqozo etadi.

Surdopedagogikada individual o‘qitish davriga xos (XVIII asr oxirigacha) kar bolalarga ona tilini o‘rgatishning uslubiy yondashuvlarini tahlil qilishda quyidagi savollarga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq deb hisobladik:

kar va zaif eshituvchi bolalarni yakka tartibda tarbiyalash va o‘qitishning umumiy jarayonida nutqqa qanday o‘rin ajratilgan?;

kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarga ona tilini o‘rgatish ishlari qanday bosqichlarda amalga oshirilgan?;

ona tiliga o‘rgatishda nutqning qanday shakllari (og‘zaki, Yozma, daktil, imo-ishora) qo‘llanilgan, bu jarayonda nutq shakllarining qaysi biri asosiy o‘rinda bo‘lgan?;

ona tiliga o‘qitishda qanday usullar qo‘llanilgan, ular vositasida o‘quvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishda qanday natijalarga erishilgan;

kar o‘quvchilarda eshitishning buzilish darajalari hisobga olinganmi?;

ona tiliga o‘qitishda eshitish darajalari bo‘yicha differensial yondashuv amalga oshirilganmi?.



Sanab o‘tilgan savollar kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishning metodik tizimini takomillashtirishda asos bo‘luvchi ma’lumotlarni umumlashtirish imkoniyatini berdi.

Ponse, X. Bonnet, D. Bulver va boshqalar kabi faoliyati yakka o‘qitish davriga taaluqli bo‘lgan surdopedagoglarning tajribalarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, o‘sha davrlardayoq kar va zaif eshituvchilarning ta’limi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvida nutq muhim va hal qiluvchi omil ekanligi tan olingan. Biroq kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘ragtish o‘ziga xos davrlarni o‘z ichiga oladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishning ilk davrida muloqot o‘rnini bosuvchi nutq shakllaridan foydalaniladi. D.M.Mayansning tilga o‘qitishning dastlabki davriga bag‘ishlangan kuzatishlari kar bolalarning so‘z va gaplarni tushunishi va iste’mol qilishiga bag‘ishlanadi. Biroq «iste’mol qilish» rasmlarga so‘z va jumla tanlash tajribasi asosida o‘rganildi. Rasmlarga so‘z va jumla tanlash, ulardan muloqotda, jonli nutqda foydalanish degan gap emas. Keltirilgan ma’lumotlarda kar bolalarni tilga o‘qitishning dastlabki davrida yozma nutqning roli va ahamiyati, mazkur nutq ustida ishning mazmuni va yo‘nalishi haqida fikr yuritilgan.

YE.P.Musatovning fikricha yozma nutq dastlab predmetlar va namoyish etilishi kerak bo‘lgan yoki etilgan harakatni ifodalash uchun beriladi. Faqat ritmika darsida undan foydalanishga to‘xtalganda muallif yozma nutqning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadi. Bunda u buyruqlar («o‘ngga», «tur», «yugur», «roslan» kabilar) ni bolalarga berishda kartochkalardan foydalanishni ko‘zda tutadi [, -35].

M.A.Tomilova esa yozma nutqqa o‘zgacha yondashadi. Uning tavsiyalarida ko‘rsatilishicha, kar bola qanchalik erta mustaqil yozishni bilsa, u atrofdagilar bilan kengroq muloqot qilish imkoniyatiga shunchalik tez ega bo‘ladi. Mazkur muallifning ishlarida kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning so‘zlarni bilishi, predmetlarni nomlashi, gap tuzishi haqida ma’lumotlar mavjud. Biroq u ham nutqiy materialdan bevosita muloqot jarayonida foydalanish ustida to‘xtalmaydi. M.A.Tomilova fe’lning ahamiyatini holat va harakat ifodasi sifatida biladi. Boshqa mualliflar esa fe’lni harakatga undovchi sifatida ta’riflaydilar. Uning tavsiya qilishicha, yozma nutqqa o‘qitish ota-onalarga xat yozishdan boshlansa, unda u bolalarning ehtiyojiga javob beradi va nutqning rivojlanishiga turtki bo‘ladi[, -271].

N.G.Morozova esa bu holatga qarama-qarshi fikrni bayon qiladi. Yozma nutqni u muloqotga undovchi suhbatdoshdan ajralgan holda deb biladi. N.G.Morozova R.M.Boskising kar bolalar uchun ham og‘zaki, ham yozma nutqning ahamiyati bo‘yicha teng darajada ixtiyoriyligini ta’kidlovchi fikriga qo‘shilgan holda yozma nutqqa o‘zgacha ta’rif keltiradi: «Yozma nutq,-yozadi u,-og‘zaki nutqqa nisbatan u darajada yengillikka ega emas va unga kar va zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish



eng oson, qulay yo‘l deb qaramaslik lozim. U haqiqatdan ham ko‘p tarkibli, ifoda (grafik)li va matnli qabul qilish hamda anglash uchun uning ustida og‘zaki nutqqa nisbatan uzoq to‘xtalish lozim».

N.G.Morozova nutq shakllarining o‘rni va ahamiyati, ularning muloqotdagi roliga qarab belgilanishi kerak deb ta’kidlaydi [, -276].

Imkoniyati cheklangan bolalarga va kattalarga maxsus metodik yordam ko‘rsatish bo‘yicha dastlabki pedagogik tadbir eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish bilan bog‘liqdir. 1760 yilda cherkovdan chetlashtirilgan diniy maktab o‘qituvchisi Sharl Mishel de L’YEpe (1712 - 1789) ikki nafar eshitmaydigan qizchalarni o‘qitishga qo‘l urgan. Qizchalar bilan ishlash davomida o‘zining insonparvar g‘oyalariga tayangan. Karlarni o‘qitish mumkinligini amaldagi isboti va bu jarayonda natijaga erishish Sharl Mishel de L’YEpening eshitmaydigan bolalar uchun dastlabki xususiy maktab ochish haqidagi qaroriga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Ushbu maktab keyinchalik Parij milliy karlar instituti nomini olgan. YEpe bunday bolalarni o‘qitishda va tarbiyalashda jest tili, ya’ni mimika metodini samarali metod deb hisoblagan. U o‘z pedagogik g‘oyalarini va tavsiyalarini “Kar – soqovlarni metodik belgilar vositasida o‘qitish” kitobida bayon qilgan. Muallif o‘qitishning mimika metodini ma’qul deb topadi va bu metod kar bolalar uchun eng tabiiy va ruhan yaqin metod ekanligini taxmin qiladi. Uning nazarida mimika metodi orqali muloqotga o‘rgatish karlaraga o‘z tuyg‘u va kechinmalarini to‘la namoyon qilish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda pedagog-gumanist boshqa davlatlarda qo‘llaniladigan metodlarni ham o‘rinli deb biladi. Kar bolalarning aqliy rivojlanishi uchun jestlardan tashqari boshqa nutq vositalari, ya’ni so‘zli (asosan yozma shaklda), shuningdek, og‘zaki va daktil nutq shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb ishongan.

J. J. Russo qarashlari tarafdori bo‘lgan Epe o‘z ishlarida “tabiiylik”, “tabiatga muvofiqlik” tamoyillariga ustuvorlik bergan. Kar bolada ichki tuyg‘u hamda hislarning tarkib topishi uning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi deb ta’kidlagan. Uning fikricha ta’lim karlarning tabiiy layoqatlarini va qobiliyatlarini mukammallashtirish, ularni mehnatga va jamiyat hayotiga tayyorlaydigan jarayondir. Shuning uchun Epe o‘z oldiga eshitmaydigan bolalarni aqliy va axloqiy tarbiyalash vazifasini qo‘yadi. Aqlan va axloqan shakllangan kar bola jamiyatning haqli a’zosiga aylanishini amaliyotda isbotlashga harakat qilgan.

Epening vafotidan so‘ng uning shogirdi Rene Sikar (1742 – 1882) mimika metodini mukammallashtirish va metodik rivojlantrish bilan bir qatorda institutga rahbarlik qilgan. Sikar “mimik belgilar” - jestlar tizimiga fransuz tilidagi murakkab leksik va grammatik vositalarni jestlar bilan yetkazish imkonini beruvchi qo‘shimchalarni kiritgan. U predmetlar va mavhum tushunchalarni



ifodalash uchun turli xil jestlarni ishlab chiqqan. Taxminan 1850 – yillarda Parij karlar milliy instituti vrachi Aleksandr Blanshe kar bolalarni oral metod orqali o‘qitishga kirishgan. Mimik metoddan farqli ravishda ushbu metod faqatgina muloqotniq so‘zli vositalaridan foydalanishga asoslanib qurilgan edi. Blanshe bir qancha umumta‘lim maktablarida karlarning o‘qishini va yaxshi eshitmaydiganlar uchun integratsiyalangan sinflar tashkil qilishga muvaffaq bo‘lgan. Ushbu eksperimentning yaqqol ijobiy natijalariga qaramasdan, ushbu sinflar uzoq muddat mavjud bo‘lmagan va mamlakat ta‘lim tizimida boshqaruvchilar o‘zgarishi, shuningdek moliyaviy yetishmovchiliklar sababli o‘z faoliyatini to‘xtatgan.

Fransiyada yo‘lga qo‘yilgan va muayyan natijalarga erishgan bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kar bolalarga ona tilini o‘qitishda ular uchun ruhan yaqin bo‘lgan nutqiy shakllarga tayanish maqsadga muvofiqdir. Albatta har qanday metodning qo‘llanilishida tizimlilik. Muntazamlilik muhimdir. Epe va Sikar tajribalarida ham aynan tizimli ta‘sirlar orqali kar bolalarga fransuz tilini o‘rgatish imkoniyatiga erishilgan.

Shvesiyada rivojlanishda turli muammolari bo‘lgan bolalarni o‘qitishga ilk urinishlar qilinyotgan vaqtda Fransiya va Germaniyada kar bolalar uchun maktablar ochilib, faoliyat yuritayotgan edi. Shvesiyalik Abraxam Angillander (1722-1800) ilk shved surdopedagogi hisoblanib, u kar bolaga yozma nutq asosida og‘zaki nutqni o‘rgatadi. A. Angillander tomonidan 1771-yilda chop etilgan “Karlarni og‘zaki nutqqa o‘rgatishning malakali usuli” nomli ishi – surdopedagogika bo‘yicha birinchi shved monografiyasi hisoblanadi. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, A. Angillanderning Shvesiya yoki Finlyandiyaga taalluqli ekanligi xususida bahs-munozaralar mavjud, buning sababi u yashagan hudud 1809-yilda Finlyandiyaga o‘tib ketganligidir.

1786-1788-yillarda Uppsal shaxrida Daniyel Arosenius (1764-1838)ning hozirgi kunda surdopedagogika tarixiga oid eng qadimiy manba hisoblanuvchi “Karlarni o‘qitish san‘ati” nomli kitobi nashr etildi. Shu shaxarning o‘zida universitet professori Samuyel Edman kar qiziga labdan o‘qishga asoslangan holda og‘zaki nutqni o‘rgatadi. Maxsus ta‘limni maktablarda berilish tarixi 1809 yilda Stokgolm shaxrida Shvesiya qirolining moliyaviy qo‘llab-qo‘llashi yordamida tashkil etilgan kar-soqov va karlar uchun institutning ochilishi bilan bog‘liq. 1859 yildan to 1984-yilga qadar Shvesiyaning turli shaxarlarida kar bolalar uchun 14ta maxsus muassasa ochiladi. 1889 yilda majburiy ta‘lim to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi natijasida bu toifa bolalarning ham 8 yillik majburiy ta‘lim olishi belgilab qo‘yildi.

Shvesiyada karlarning ta‘lim tizimiga nemis surdopedagoglarining tajribalari katta ta‘sir ko‘rsatdi. Shved o‘qituvchilarining Germaniyada tajriba o‘rganishlari ular uchun umumiy amaliyot vazifasini o‘tadi. 1861 yilda hukumat tomonidan

tajriba o'rganish uchun F.M.Gill, K.RBergkvist va o'sha davrdagi Stokgolm yaqinidagi surdopedagoglar Germaniyaga yuborildi. 1912 yilga kelib Mannil shaxridagi 80% kar bolalar sof og'zaki usul yordamida o'qitilar edi. XX asrning 30-yillariga kelib Germaniya hukumati millatchilar qo'liga o'tganligi sababli, shved surdopedagoglari Angliya va AQShdan tajriba o'rganishni boshladilar. 1888 yilda Stokgolm yaqinida ko'rlar uchun birinchi maktab ochildi, 1896-yilda esa ko'r bolalar uchun 10 yillik majburiy ta'lim joriy qilindi. Shvesiyada birinchilardan bo'lib, ko'r va karlarga ta'lim berish yo'llga qo'yildi. 1882 yilda qirolicha Sofiya iltimosiga ko'ra Elizabet Anrep-Nordin ko'r-kar qiz bilan shug'ullanishni boshlaydi. 1886-yilda esa, Skar shaxrida ko'r-karlar uchun maktab ishga tushadi. Bu maktab amaliyoti aynan o'quvchilarga ona tilini o'rgatish va kasb-xunar egallatishga yo'naltirilgan.

Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarining asosiy muammolari eshitmasligi yoki zaif eshitishi sababli og'zaki nutqni tushunmasligi, tovushlarni farqlamasligi va fikrini og'zaki tarzda atrofdagilar tushunadigan darajada bayon eta olmasligi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda ularning nutqini shakllantirish, eshitish idrokini rivojlantirish bilan paralel ravishda olib borilishi talab etiladi. Eshitishga o'rgatish ishlarining ona tiliga o'qitish tizimidagi muhim komponentligi tarixda Germaniya, Fransiya, Rossiya davlatlaridagi surdopedagogik amaliyotda kuzatiladi. Eshitish, eshitib ko'rish ko'nikmalari kar va zaif eshituvchi bolani nutqiy muloqotga tayyorlaydi.

Nutqiy muloqot bolaning shaxs sifatida rivojlanishida markaziy o'rinni egallagani sababli ham, eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasida nutq birinchi o'ringa suriladi.

L.P.Noskova va L.A.Golovchitslar muallifligidagi "Metodika razvitiya rechi doshkolnikov s narusheniyami sluxa" nomli o'quv qo'llanmasida kar va zaif eshituvchi bolalarning aqliy, ruhiy rivojlanishida hamda shaxs sifatida shakllanishida nutqning ahamiyati xususida bir qator olimlarning fikrlari keltirilgan:

N.G.Morozova eshitishida muammolari bo'lgan bolalar sezgilarning o'zaro bog'liq harakatlari idrokka ta'sir qilishini va idrok olamni egallashda muhimligini quyidagicha sharxlaydi: "Uzoq muddat so'zning yo'qligi barcha analizatorlarning faoliyatlarida ko'rinadi, natijada idrok o'ziga xos shakllanadi. Predmetli tashqi olam yetarlicha turkumlanmay, mohiyati tavsiflanmagan holda nutqsiz qabul qilinadi";

A.A.Potebnya eshitmaydiganlarning ta'limi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvida mutaxassis o'qituvchilarning roli haqida quyidagi fikrni aytadi: "Karlar gapiruvchilarsiz yoki ular tilida gapirishni o'rganganlarsiz, hayvon sifatida qolib ketgan bo'lardilar";



F.F.Rau eshitmaydigan bolalar muloqotda qo‘llaydigan nutq shakllari va vositalari xususida shunday deydi: “Og‘zaki nutq kar bolalar uchun tilning leksika va grammatikasini egallashga zamin bo‘lib hizmat qila olmaydi, bu rolni ular uchun daktil va yozma nutq bajaradi” ;

L.S.Выготский kar bolalar muloqoti negizini tashkil qilgan daktil nutqining imkoniyatlari haqida shunday deydi: “Havoda yozish (daktillash)-madaniy rivojlanish uchun yorqin yo‘l. Qayerda organik rivojlanishga imkon bo‘lmasa, shu yerda madaniy rivojlanish uchun cheksiz yo‘l ochiladi”;

“Nutq bu inson psixikasining ijodiy funksiyasidir”,-deb ta’kidlaydi N.Jinkin;

“Nutqdan tashqarida rivojlanayotgan ko‘rgazmali tafakkur tugal emas, ya’ni amalga oshmagan”, - deb hisoblaydi J.I.Shif;

Sanab o‘tilgan nazariy ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, kar va zaif eshituvchi bolalarning ta’limini tashkil etish jarayonlari nutq ustida ishlash bilan boshlanadi. Nutq ustida ish mazmunini ishlab chiqishda esa, sog‘lom bolalarda nutq rivojlanishining xususiyatiga asoslaniladi. Sog‘lom bolalarning nutqiy rivojlanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali kar bolalar nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarning konsepsiyalari shakllantirilgan.

Nutqning rivojlanish jarayonida bolalar so‘z turkumlaridan otlarni tez o‘zlashtiradilar. Buning sababi, bolalar narsalarni o‘z nomlari bilan atashga harakat qiladilar. 4-5 yoshli bolalar otlarni ko‘plik, birlik, bo‘lishli, bo‘lishsiz shakllarda va turli kelishiklarda to‘g‘ri ishlata oladigan bo‘ladilar. 6 yoshli bola so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz eta oladi. Otlardan so‘ng bolalar so‘z turkumlaridan fe’llarni va sifatlarni o‘zlashtira boshlaydi. Fe’llarning shaxs qo‘shimchalarini osonlik bilan egallasalar ham, lekin fe’llarning zamonga qarab o‘zgarishini (hozirgi, o‘tgan, kelasi) darhol to‘g‘ri o‘zlashtira olmaydilar. Bog‘cha yoshidagi kichik bolalarda turmush tajribasi ozligi sababli o‘tgan va kelasi zamon tushunchalarida fe’llarning zamon qo‘shimchalarini almashtirish hollari kuzatiladi. 5-6 yoshli bolalar fe’llarning tuslanish va zamonga qarab o‘zgarib borishini amaliy to‘g‘ri ishlatadigan bo‘ladi.

Shunday qilib, asosiy aloqa vositasi bo‘lgan nutq bola ruhiyatining taraqqiyotida benihoya katta rol o‘ynaydi. Bog‘chada va oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim-tarbiya va xususan, bog‘chada ona tilidan o‘tkaziladigan maxsus mashg‘ulotlar tufayli bola nutqini me’yorda rivojlantirish mumkin. Bola bog‘cha yoshining oxiriga kelganda og‘zaki nutqdan erkin foydalana oladigan bo‘ladi.

Bolalar nutqining shakllanishiga doir uchinchi, maktabgacha (3 yoshdan 6 yoshgacha) bo‘lgan davrida eshitish va idrok qilish malakalari rivojlanib boradi. Bu esa bola uchun o‘z talaffuzini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Ba’zi



hollarda esa bola o‘z kamchiligini to‘g‘rilydi. Mazkur jarayon bolada fonematik idrokning shakllanib borishini bildiradi.

M. Hamidova bola nutqining rivojlanish jarayoni o‘z vaqtida to‘g‘ri kechishi uchun quyidagi maxsus sharoitlar, ya’ni:

- bola ruhiy va jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lishi;
- me’yordagi aqliy qobiliyatga ega bo‘lishi;
- me’yorda eshitishi va ko‘rishi;
- yetarli darajada ruhiy faollikka ega bo‘lishi;
- fikr almashish ehtiyojiga ega bo‘lishi;
- to‘g‘ri tashkil etilgan nutqiy muhitga ega bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi [-41].

M. Hamidovanning sanab o‘tgan sharoitlarni tahlil qilsak, o‘z-o‘zidan kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqini shakllantirishda o‘ziga xos yondashuvlar, maxsus metodikalar taqozo etilishi namoyon bo‘ladi. Chunki bu bolalarda eshitish me’yorda bo‘lmaydi.

Bola yashayotgan muhit nutqning shakllanishiga bevosita ta’sir etadi. Oilada bolaning rivojlanishiga nisbatan maqsadli, o‘z vaqtida yosh xususiyatlariga mos ravishda ta’limiy e’tibor berilishi nutq shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida mazmun kasb etadi. Zero, «Ijtimoiy muhit va uning tuzilishi-deb ta’kidlaydi L.S. Vigotskiy-har qanday tarbiya uchun tugal va hal qiluvchi omildir»[, -37].

Eshitmaydigan bolalar ta’limi jarayonida muloqot vositasi va fikrlash quroli sifatida nutqni reja asosida shakllantirishga muhim ahamiyat berish talab qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Убайда Файзиева “эшитишида муаммолари кулган болаларга она тили ўкитиш методикаси” – “Tafakkur” nashriyoti Toshkent -2011
2. Л. С. Васильева, л. И. Книшева, м. А. Султонова “Talaffuz” Toshkent O‘qituvchi – 1995
3. Mirzaev, O. (2022). The role of ethics and aesthetics in the formation of entrepreneurial relations between individuals. *Science and innovation*, 1(B6), 125-130.
4. Nargiza, Q. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida logoped ishining olib borilishi. *Pedagogs jurnali*, 22(2), 52-54.
5. Жўрахўжаев, М. Х. (2022). Имконияти чекланган болалар уйда якка тартибдаги таълимда ўқув жараёнини ташкил этиш. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 295-298.
6. Мирзаев, О. Х. (2020). Воспитание профессионально-нравственных качеств у будущих молодых фермеров средствами отечественной литературы. *Science and Education*, 1(2), 508-513.
7. Xusanovich, M. O. (2021). Formation Of Elements Of Entrepreneurial Activity In Pupils Of The Preschool Educational Organization. *JournalNX*, 1, 265.
8. Khalilkhoja, D. M. (2022, March). Problems and solutions of home individual educators. In *Conference Zone* (pp. 315-318).
9. Azimova, Z. E., & KHASANOVA, G. The way of science. the way of science Учредители: Издательство Научное обозрение, (6), 58-59.



10. Азимова, З. Э., & Муллаахунова, Н. М. (2023). Развитие речи учащихся 6 класса узбекских школ средствами произведений искусства на уроках русского языка как иностранного. *Science and innovation*, 2(Special Issue 5), 638-641.

11. Азимова, З. Э. (2018). Олий ўқув муассасаси маънавий-маърифий ишларининг педагогик назария ва амалиётда тутган ўрни. *Современное образование (Узбекистан)*, (2), 26-35.

12. Gulhayo, M. (2023). Technologies for development of general competences of preschool teachers. *Science and innovation*, 2(B4), 632-634.

13. Mominova, G. (2023). Maktabgacha talim tashkilotlari tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari. *Science and innovation in the education system*, 2(2), 122-126.

14. Iminova D. Maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarni bilish jarayonlarini takomillashtirish // *Models and methods in modern science*. – 2022. – Т. 1. – №. 17. – С. 54-56.

15. Iminova D. N. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati // *Science and Education*. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 301-303.

16. Iminova D. N. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati // *Science and Education*. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 301-303.

РЕЗЮМЕ

Мақоллада кар ва заиф eshituvchi болалар мактабларида она тили о'ргатish darslarini integrativ tashkil etish jihatlari haqida yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются историко-педагогические аспекты формирования элементарных предпринимательских навыков детей в дошкольном образовании.

SUMMARY

The article examines historical and pedagogical aspects of the formation of elementary entrepreneurial skills of children in preschool education